


## 2022- yilning yanvar-sentabrda Navoiy viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-sentabrda Navoiy viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 49 729,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 5,5 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 109,8 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAHMning shakllanishida Navoiy viloyatining qo'shgan hissasi 7,9 % ga yetdi.




## 2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2021- yil	2022- yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>42 924,6</b>	<b>49 729,0</b>	<b>105,5</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	42 190,7	48 719,6	105,5
mahsulotlarga sof soliqlar	733,9	1 009,4	106,4
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>42 190,7</b>	<b>48 719,6</b>	<b>105,5</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>6 256,4</b>	<b>6 473,3</b>	<b>104,5</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>30 978,3</b>	<b>36 116,6</b>	<b>105,4</b>
sanoat	29 382,3	34 241,0	105,3
qurilish	1 596,0	1 875,6	108,6
<b>xizmatlar</b>	<b>4 956,0</b>	<b>6 129,7</b>	<b>107,1</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 126,1	1 488,7	116,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	714,8	828,9	110,6
boshqa xizmat tarmoqlari	3 115,1	3 812,1	103,0

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 47 724,5 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,4 % ga yuqoridir.

**2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari**





Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,0 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,0 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 13,3 % ni, sanoat tarmog'i 70,3 % ni, qurilish 3,8 % ni va xizmatlar sohasi 12,6 % ni tashkil qildi.

## 2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (*jamiga nisbatan % da*)

	2021- yil	2022- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	98,3	98,0
mahsulotlarga sof soliqlar	1,7	2,0
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>14,8</b>	<b>13,3</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>73,4</b>	<b>74,1</b>
sanoat	69,6	70,3
qurilish	3,8	3,8
<b>xizmatlar</b>	<b>11,8</b>	<b>12,6</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2,7	3,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1,7	1,7
boshqa xizmat tarmoqlari	7,4	7,8

## 2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)




● **Yalpi qo'shilgan qiymat**

● **Mahsulotlarga sof soliqlar**

YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 104,5 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 13,3 %), sanoatda – 105,3 % (70,3 %), qurilishda – 108,6 % (3,8 %), xizmatlar sohasida – 107,1 % ni (12,6 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 116,1 % (3,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 110,6 % (1,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,0 % (7,8 %) dan iborat bo'ldi.


## 2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,7 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 0,7 f.p.), sanoat tarmog'i – 3,6 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 3,5 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,3 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 0,7 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 0,8 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 1,2 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,1 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 0,1 f.p.) ga ko'paydi.

## 2022- yilning yanvar-sentabrida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2022- yilning yanvar-sentabrda YAHM deflyatori indeksi 2021- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 109,8 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlarda – 115,5 % va sanoatda – 110,7 % qayd etildi.

## 2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



## 2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 25,9 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-sentabrda – 26,6 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

2021- yil

26,6 %

2022- yil

25,9 %